

Yoz boshlanmoqda - “Yorqin payshanba” davom etmoqda

2023 31 May

Yoz mavsumi kelishi bilan ko'pchilikda an'anaviy ravishda rejalashtirilgan ta'tillar boshlanadi. Uzbekistan Airways “Yorqin Payshanba” aksiyasi doirasida eng mashhur:

- Toshkent-Parij-Tashkent
- Toshkent-Milan-Toshkent
- Urganch-Parij-Urganch
- Urganch-Milan-Urganch
- Toshkent-Tokio-Toshkent
- Toshkent-Jakarta-Toshkent
- Toshkent-Urumchi-Toshkent
- Namangan-Omsk-Namangan
- Namangan-Ufa-Namangan
- Namangan-Nijnevartovsk-Namangan
- Namangan-Krasnoyarsk-Namangan kabi yo'nalishlarga 20% chegirma e'lon qiladi!

Chegirmadan foydalanishning shartlari:

1. Aksiya muddati 2023-yil 1-iyun soat 00:00 dan 23:59 gacha;

2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:

- kattalar uchun tarifdan – 20%;
- 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda chegirma miqdori kattalar tarifining – 25 foizini tashkil qiladi);
- chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;

3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;

4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 2023-yil 1-iyun kuni qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;

5. Aviachiptalarni chegirma bilan aviakompaniyaning veb-saytida, "Uzbekistan Airways Sales" filiali va uning agentlarida, shuningdek, xorijdagi vakolatxonalarimizda fuqaroligidan qat'iy nazar xarid qilish mumkin. Chegirma CODE SHARE reyslari uchun qo'llanilmaydi;

6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;

8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkent/Urganchdan Parij, Milan, Tokio, Jakarta, Urumchi va orqaga, shuningdek, Namangandan Omsk, Ufa, Nijnevartovsk, Krasnoyarskka va orqaga to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi.

"Yorqin payshanba" aksiyasi doirasida aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, UzAirways ilovasi orqali, shuningdek, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.